

SAMARQAND VILOYATIDA SANOAT KORXONALARI BOZOR MUNOSABATLARI DAVRIDA

2-kurs magistr T. Raxmonov.

Ushbu maqolada Samarqand viloyati respublika iqtisodiyotida, xususan ishlab chiqarish, sanoat sohasida etakchi xududlardan hisoblanishi va Viloyatda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida, sanoatning engil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlar, ishchi o'rinlari bilan kengaytirilib borilishi. Uning mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda bunday ulkan tadbirlarning hozirgi kundagi natijalari xususida ma'lumotlar yoritiladi.

Sanoat O'zbekiston milliy iqtisodiyotining moddiy ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudofa qudrati sanoatga bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi 1991 yil 15 fevraldagi qonuni hamda shu masaladagi qonunlarga binoan, kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarda mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etish, ularning faoliyatini qayta tashkil etish va tugatishning umumiy va huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy asoslari belgilab berilgan.

1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII-sessiyasida *“mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”*gi Qonun so'ngra, 1994 yil 21 yanvarda qabul qilingan *“Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi¹ va 1994 yil 16 martda qabul qilingan *“Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida”*gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayonini yanada yangi pog'onaga ko'tarish, uni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi. Qabul qilingan qarorlarga muvofiq, yangi bosqichda korxonalarni ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish, ushbu jarayonga aholini va chet ellik investorlarni kengroq jalb qilish jarayonini avj oldirish vazifasi qo'yildi.

Xususiylashtirish natijasida nodavlat mulkning turli shakllari va eng asosiysi mulkdorlar qatlamining shakllanishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyulda qabul qilgan Farmoni *“Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida”* bo'lib, ushbu farmonda - ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarining faoliyati bilan bog'liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida hamma tomonidan qabul qilingan tizimini joriy etish va shu asosda, mamlakatimiz

¹ Каримов И. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б.16-43.

ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishning g'oyat muxim vazifalari belgilandi.

O'tgan yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti va uning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror o'sish sur'atlariga erishildi. 2014 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi².

Samarqand viloyati respublika iqtisodiyotida, xususan ishlab chiqarish, sanoat sohasida etakchi xududlardan hisoblanadi. Viloyatda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida, sanoatning engil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlar, ishchi o'rinlari bilan kengaytirilib borildi. Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar mavjud mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

2013 yilda viloyatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida 72298 ta ish joylari tashkil qilingan bo'lib, shundan 2840 tasi yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, ishlayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, 29350 tasi kichik korxona va mikro firmalarni yaratish va rivojlantirish, 9221 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, 12455 tasi kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish, 14480 tasi fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, 7522 tasi ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish, 898 tasi iqtisodiy nochor va ishlamayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklash³ hisobiga tashkil etildi. Quyida viloyatning Kattaqo'rg'on tumani misolida⁴ sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi ko'rsatilmoqda:

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
Sanoat mahsuloti	mln. so'm	55790,8
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	124,6
Viloyatdagi ulushi	%	2,8
Aholi jon boshiga	ming so'm	697167,1
Kichik biznes ulushi	%	33,6
Korxonalar soni	birlik	93

² Ўзбекистон Республикаси Президенти И. Каримовнинг мамлакатимизни 2014 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2015 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устивор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси //Зарафшон, 2015 йил 17 январ.

³ Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

⁴ <http://www.kattagurgon.uz>.

<i>shundan: yirik korxonalar</i>	<i>birlik</i>	2
Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari	<i>mln. so'm</i>	46414,9
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	119,8
Viloyatdagi ulushi	%	3,2
Aholi jon boshiga	<i>ming so'm</i>	580186,0
Oziq-ovqat mahsuloti	<i>mln. so'm</i>	36989,3
Nooziq-ovqat mollari	<i>mln. so'm</i>	9425,6
<i>shu jumladan, engil sanoat mollari</i>	<i>mln. so'm</i>	27,3

Yangi korxonalar barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya loyihani amalga oshirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish va iste'mol oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga sutni qayta ishlash bo'yicha - ishlab chiqarish quvvati 13,6 ming tonnaga teng 4 ta loyiha, go'shtni qayta ishlash bo'yicha - ishlab chiqarish quvvati 800 tonna bo'lgan 4 ta loyiha, meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvati 3,6 ming tonna bo'lgan 5 ta loyiha ishga tushirildi.

Viloyatni 2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 302,3 mln dollarga teng bo'lgan jami 1165 ta loyiha amalga oshirilishi va 17,3 mingta ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. SHundan 2013 yilda umumiy qiymati 258,3 mln dollarga teng 1108 ta, 2014 yilda umumiy qiymati 20 mln dollarga teng 46 ta va 2015 yilda umumiy qiymati 24 mln dollarga teng 11 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Loyihalar tarmoqlar kesimida quyidagicha taqsimlanadi: sanoat mahsulotlari bo'yicha 452 ta (224 mln dollar), qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha 299 ta (29,3 mln dollar) hamda xizmat va servis sohasi bo'yicha 414 ta (49 mln dollar) loyiha belgilangan⁵.

Sanoat sohasidagi loyihalarning 112 tasi engil sanoat, 133 tasi oziq-ovqat mahsulotlari, 102 tasi qurilish materiallari va qolgan 105 tasi boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga rejalashtirilmoqda. Hududlar kesimida rejalashtirilgan loyihalardan Samarqand shahriga 204 tasi, Samarqand tumaniga 103 tasi, Urgut tumaniga 90 tasi va Pastdarg'om tumaniga 78 ta to'g'ri kelmoqda. Loyihalarning 277 tasi tijorat banklari ishtirokida amalga oshirilgan bo'lib, qiymati 40,7 mln dollarga teng kredit mablag'lari jalb etildi va 3,2 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 29 dekabrda "Tovarlar va xizmatlar eksporti ko'rsatkichlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2012 yil 26 martdagi "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlariga asosan joriy yil uchun viloyatning hududiy tasarrufida bo'lgan 95 ta hududiy korxona bo'yicha tovar va xizmatlar eksporti 119758,3 ming dollar miqdorida prognoz ko'rsatkichi belgilangan bo'lib, belgilangan chora-tadbirlar va amalga oshirilgan ishlar

⁵ Samarqand viloyati hokimligining Samarqand viloyatini 2013 yilning to'qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlari.

natijasida 2013 yil 1 sentyabr holatiga viloyatning 77 ta hududiy tasarrufidagi korxonalari tomonidan 93742,2 ming dollar eksport xizmatlari amalga oshirildi, belgilangan prognozga (93543,4 ming dollar) nisbatan 100,2 foizni tashkil etgan⁶. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 128,6 foizni tashkil qilgan. SHu jumladan, jami 77 ta hududiy eksportyor korxonadan 29 tasi yangi korxona hisoblanib, ular tomonidan jami 15,1 mln dollar miqdorida tovar va xizmatlar eksporti amalga oshirilgan.

Viloyatda eksportyor korxonalar tomonidan gilam va gilam mahsulotlari, konserva, vata prima, avtotraktor gilzalari, gips va ohak, kovul va yangi turdagi mahsulotlar - polipropilen qoplar, ipak xomashyosi, villyur, rentgen trubasi, karbonat kalsiy, farmatsevtika va plastmassa mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Hududiy eksportning asosiy qismi Samarqand shahriga (27,4 foiz), shuningdek, Samarqand tumani (11,2 foiz), Urgut tumani (10,5 foiz), Pastdarg'om tumani (9,8 foiz) korxonalari ulushiga to'g'ri keldi. Eksportyor korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarga. Jumladan: Qozog'iston – 36 foiz, Rossiya va Ukraina - 22,3 foiz, Turkiya - 7 foiz, Afg'oniston va Qirg'iziston - 16,6 foiz va 18 foizi Iroq, Angliya, Germaniya, Turkmaniston va boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda singari viloyatda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturlari orqali ko'zlangan maqsadlar o'z natijasini bermoqda. Bozor munosabatlari davrida viloyatda ishlab chiqarish sohalarini kengaytirish orqali tashqi omillarga bog'liqlikni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va eng asosiysi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

⁶ Samarqand viloyati hokimligining Samarqand viloyatini 2013 yilning to'qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlari.